

JAHON MAMLAKATLARIDA KOMPRAVISTIK PEDAGOGIKANING FAOLIYATI VA VAZIFALARI

Pirnayeva Umida

8.23- guruh Pedagogikaa yo'nalishi talabasi

Annotasiya: *ushbu maqola bugungi kundagi kompravistik pedagogika va uning ahamiyati, jahon mamlakatlari ta'lim-tarbiya sohasidagi islohotlar, jahon mamlakatlarida kompravistik pedagogikaning faoliyati va vazifalari haqida.*

Tayanch so'zlar: *kompravistik yondashuv, kompravistik pedagogika, tarbiya, ta'lim, islohotlar, dolzarb muammolar, kompravistik pedagogika faoliyati, funksiyalar.*

Jahonda zamon talablariga mos metodik tayyorgarlikka ega bo'lgan pedagogik kadrlarni tayyorlash bo'lajak o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish, metodik tayyorgarlikni takomillashtirish modellarini, metodik tizimi, multimediali elektron resurslar yaratish bo'yicha keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Shu bilan birgalikda "ta'lim sifatini baholash jarayoni va vositalarini takomillashtirish, erishilgan natijalarni aniqlash imkonini beruvchi mexanizmlarni amaliyotga joriy etish" ga zarurat borligi qayd etilmoqda. Bugungi kunning zamonaviy o'qituvchi-nafaqat sohasi bo'yicha bilimli, balki, birinchi o'rinda tashabbuskor bo'lishi ayniqsa bugungi kun o'qituvchisi kuchli nazariy bilimga ega, yangilikka intiluvchan, o'z g'oyalarini amaliyotga tadbiq eta oladigan, jahon tajribasiga qiziqadigan va yangi andozadagi o'qitish tizimini ta'limga olib kirishga qodir bo'lishi lozim. Davlatimiz rahbari "O'qituvchi va murabbiylar" kuni munosabati bilan soha vakillariga yo'llagan tabrik nutqida ta'kidlaganidek, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir. Aynan, shuning uchun ham, prezident: "Maktabda o'qitish metodikasi o'zgarmasa, ta'lim sifati ham, mazmuni ham, muhit ham o'zgarmaydi", -deb ta'kidlaganlarida "Uchinchi Renessans poydevori" ni ta'lim islohotlarida ko'rdi. Bu vazifalarni bajarishda qiyosiy pedagogika fani maydonga chiqadi. Chunki, jahon ta'lim tizimini qiyosiy o'rganish va ilg'or tajribalarni respublikamizda ommalashtirish samarali natija bermoqda.

Qiyosiy pedagogika tushunchasiga komparativist olimlar turlicha ta'rif beradilar. Rus olimi M.Sokolova qiyosiy pedagogikani ta'lim-tarbiya pedagogik nazariyasi va amaliyoti rivojlanishining yo'nalishlari, umumiy va o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadigan, iqtisodiy, ijtimoiy - siyosiy va falsafiy asoslari hamda milliy o'ziga xoslikni ochib beradigan soha deb qaraydi. N.Belkanov qiyosiy pedagogikani ta'limdagi globallashtirish, baynalmilallik va integratsiya natijasi deb

qaraydi. Uning fikricha, qiyosiy pedagogikada taqqoslash -bu ta'lim va pedagogika sohasida duhyo tendensiyalari bilan aloqadorlikni anglash demakdir. K.Musinning ta'kidlashicha, qiyosiy pedagogika dunyoning turli davlatlarida turli tarixiy davrlarda ta'lim-tarbiya pedagogik nazariyasi va amaliyotining holatini o'rganadi, pedagogika va maktab amaliyotining xalqaro tajribasini o'rganish va foydalanish yo'llari hamda shaklini aniqlaydi, o'z davlatida ta'lim-tarbiya modelining kelajagini bashorat qiladi. B.L.Vuifson esa qiyosiy pedagogikani pedagogik fanlarining sohasi deb qaraydi va u qiyosiy aspektida turli davlat, hudud umuman dunyo miqyosida, turli tarixiy davrlarda pedagogik nazariya va amaliyotning mavjud holati, rivojlanish tendensiyalari va qonunyatlarini o'rganadi, deb ta'riflaydi.

Xalqaro ta'lim standart klassifikatsiyasi 1997- yilda XTSK (Xalqaro ta'lim standart klassifikatsiyasi) yangilandi. Unda yettita bosqich ko'rsatilgan. 0- maktabgacha ta'lim; 1- boshlang'ich ta'lim; 2- o'rta ta'limning birinchi bosqichi; 3- o'rta ta'limning ikkinchi bosqichi; 4- o'rta ta'limdan keyingi ta'lim (oliy ta'lim emas); 5- oliy ta'lim birinchi bosqichi; 6- oliy ta'limning ikkinchi bosqichi - oliy ta'limdan keyingi ta'lim.

Ko'pgina rivojlanyotgan davlatlarda masalan, Singapur, Janubiy Koreya, Yaponiya, Malayziya, AQSh va boshqa davlatlar ya'nada rivojlanishi uchun ta'lim tizimiga o'zgartirishlar kiritildi. Barcha davlatlar tarixida davlatning ta'lim tizimini qanday, qanchalik rivojlanyotganligi hozirgi fikrimizning yorqin isboti bo'ladi. Masalan, Koreyadagi ta'lim tarixi Koreyaning Uch Qirolligiga yoki hatto ibtidoiy jamiyatga davriga borib taqaladi. O'sha paytda xususiy maktablar ham, davlat maktablari ham juda mashhur edi. Koreyada xalq ta'limi milodiy 400- yillardayoq tashkil etilgan. Koreya ta'limga tarixiy jihatdan konfutsiylik va buddizm ta'sir ko'rsatgan. Koreyada yaxshi ta'lim olish har qanday koreysning martabasini shakillantirish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Zamonaviy ta'lim tizimi Koreyada rasman Yaponiya mustamlakasidan ozod bo'lgan 1945- yildan boshlanadi. 1894- yilgi islohotlardan keyin yuzaga kelgan deyish mumkin koreyslar ta'lim tizimini. Koreyadagi Choson hukumati mamlakati mamlakat xavfsizligini kuchaytirish rejasida maxsus armiya tuzadi. Keyin esa g'arbliklar harbiy san'atda dars berishni boshlashadilar. Shu bilan bir qatorda chet tili va boshqa fanlar yuzaga kela boshlaydi. 1894-yili shaxsiy bilim maskanlari birlashtiriladi. Institutlar ta'lim tizimi tashkil etiladi. 1895-yili esa boshlang'ich maktablar va kadirilar tayyorlaydigan pedagogika maktablari tuziladi. Koreyada ta'lim tizimiga asos qilib an'anaviy g'arb modeli olingan.

Umumiy Arxiv qo'mitasiga qaraganda ma'lumotlari o'sha paytki Koreya savodxonlik darajasi 1944- yilda 13,8% ni tashkil etgan. Fikrimizning boshida aytib o'tkanimizdey Yaponiya mustamlakasidan ozod bo'lgan Koreya endilikda oldinda

ta'lim tizimini o'zgartirish vazifasi ularda ham turadi. 1963- yildan boshlab Koreya ta'lim tizimida tabiiy va ijtimoiy fanlarga e'tibor ortdi. Prezidenti Chon Du Xvon mamlakatda 1981- yili shaxsiy ta'lim berish, xususiylar ta'lim maskanlari faoliyatini cheklab qo'ydi. 1992- yilga kelib esa boshlang'ichlar rivojlanishi uchun hukumat tomonidan maktablarga bir qancha imtiyozlar yaratiladi. Boshlang'ich maktablarning ro'li juda ham muhim zamonaviy Koreya ta'lim tizimida. Boshlang'ich ta'lim Uch Koreya o'quv yilida 1- martga qadar 6 yoshdan yuqori bo'lgan bolalar qabul qilingan. Lekin Koreyada 1- martda bayram bo'lganligi tufayli 2- martdan boshlanadi. 6yil davom etadigan boshlang'ich ta'lim majburiy etib belgilangan. Koreyada o'rta ta'lim esa 3yil davom etadi. Darslar 45 minutdan belgilangan, 1yilda 1222 soatni tashkil etadi. O'rta ta'lim maktablarida ijtimoiy fan, jismoniy tarbiya, axloq, davlat tili, chet tili, musiqa, san'at va yana shu kabi 10 ga yaqin fanlar o'qitiladi. O'rta maktabda esa o'quvchilar uchun tanlov fanlar mavjud. O'rta maktab tugatilgandan so'ng yuqori maktablarda ta'lim boshlanib davom ettiriladi. Yuqori maktablar bir qancha turlarga bo'linadi. Bular, davlat yuqori maktablar, umumiy yuqori maktablar, xususiylar yuqori maktablar. Yuqori maktablarni yuqori tashkilotlar tomonidan boshqarishgan. Davlat yuqori maktablarni esa vazirliklar boshqargan. Hattoki yuqori maktablar bir qancha o'qitish fanlariga ko'ra turlarga ham bo'linadi. Bulardan, chet tili maktablari, ixtisoslashtirilgan maktablar, maxsus maktablar, jismoniy tarbiya maktablari, umumiy maktablar va yana san'at maktablariga. Hattoki Koreyada maxsus tashkil etilgan ta'lim vazirligi tomonidan tuzilgan maktablar ham bor. Ular xalqaro tilga ixtisoslashgan qishloq xo'jaligi, baliqchilik, sanoat bo'ladi.

Koreya yarimorol shimolida KXDR va janubida Koreya Respublikasi 1948- yilga kelib ikki davlatga bo'linadi. Koreya davlatida insonparvarlik, ta'lim, tinchlik, adolat eng muhimi halollik tushunchalariga e'tibor juda katta bo'ladi. Janubiy Koreyada madaniyati va urf-odatlar o'zaro bir - birga chambarchas bog'liq bo'ladi. Ular ya'ni koreya xalqi Gregoriyan kalendariga ko'ra kun kechirishadi. Shuning uchun ularni bayramlari alohida ajratilgan bo'ladi. Ammo ba'zi bayramlari oy yaqvimida nishonlanadi. Masalan, Koreya davlatida yangi yil 1- yanvar kuni nishonlanadi. Dekabr oyining o'rtalarida ko'chalarini, uylarini, bezashni boshlashadilar. Koreyada yangi yilni nishonlashni istaydigan insonlar juda ham ko'p. 1- mart kuni esa Mustaqillik kuni har yili nishonlanadi. Chunki bu bayram Koreya Yaponiya ishg'olidan qutilishi bilan bog'liq. Koreya Milliy ozodlik kuni 15-avgustda har yili nishonlaydilar. Bu kunda barcha koreyaliklar AQSh va Sovet Ittifoqi Koreyani 35 yillik Yaponiyaga mustamlakachiligidan ozod qilgan kunni xotirlaydi. Shu kabi boshqa bayramlar ham alohida nishonlanadi. Shu kabi Koreya ta'lim tizimi o'ziga xos jihatlari bilan ajralib turadi. Shuning uchun ham Koreya ta'lim tizimi boshqa mamlakatlar ta'lim tizimidan ajralib, sifati bo'yicha dunyoda

birinchi o'rinda turadi. Hattoki iqtisodiy jihatdan ham dunyoning eng yetakchi davlatlaridan. Koreya mamlakati o'zining brendlari, katta-katta kompaniyalari bilan mashhur bo'lib ajralib ham turadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. . O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 26.05.2023 yildagi PF-79-son
2. B.Xodjayev "Umumiy pedagogika" 1992-y. T. 416 b.
3. 3. Pedagogika tarixi, A. Zunnunov, "Sharq" nashriyoti, T: 2004, 332b.
4. G.N.Najmiddinova. Pedagogik mahorat kursining texnologiyalari ma'ruza matnlari.12-13-betlar.
5. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. TDPU-2023
6. A.Xoliqov.Pedagogik mahorat. Toshkent 2021
7. N.N. AZIZXO' JAYEVA.. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent-2020

ELEKTRON RESURSLARI:

1. www.tdpu.uz
2. www.pedagog.uz
- 3.. www.ziyonet.uz
4. www.lex.uz
- 5.www.bilim.uz
6. www.gov.uz
- 7.<https://daryo.uz/2023/05/30/yangi-ozbekistonning-asosiy-ustuni-bilim-talim-va-tarbiya-boladi>
8. <https://prep.uz/news/umumiy/koreya-respublikasi-ta-lim-tizimi>